

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVLARINING O'RGANILISHI

M.Isakova

psixologiya fanlari doktori (DSc),

A.Xaydaraliyev

psixologiya yo'nalishi magistranti.

Farg'ona davlat universiteti.

Jahonda aholi soni shiddat bilan o'sib bormoqda. Aholi sonining ko'payishi natijasida nafaqat ishga bo'lgan talab, balki sifatli kadrlarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Bu esa ta'lim va kasb-hunarga tayyorlov sohasiga alohida e'tibor berish zaruratini vujudga keltirmoqda. Shaxsning kasbiy shakllanishi va biron bir soha mutaxassisi sifatida kamolga yetishini ta'limdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologiyaga oid adabiyotlar va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning kasbiy shakllanishi uning hayoti davomida kechadigan murakkab jarayon hisoblanadi hamda bu uning yoshiga va shaxs sifatida rivojlanishiga mos holda yuz beradi. Kishining kasbiy muvaffaqiyati va mataxassis sifatida mahorat darajasini oshish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan uzviy bog'liq sanaladi.

Inson hayotida kasbni to'g'ri tanlay olish muhim muammolardan biridir. Kasblarning tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, psixologik jihatdan shunchalik murakkablashib boradi. Har bir shaxsning sub'ektiv moyilliklari va u yoki bu faoliyatga qobiliyatligi, yo'nalganligi bir butunlikni tashkil etadi. Moyillik va qiziqish o'yin, o'quv va mehnat faoliyatining barcha jarayonlarida shakllanadi hamda o'zgarib boradi. Insonning kasb tanlash arafasida o'sha sohaga qanchalik mos ekanligi faqatgina ushbu faoliyat jarayonida aniqlanadi.

Kasbiy psixologiya fanida shaxs kasbiy shakllanishini davrlashtirishning bir nechta turlari ishlab chiqilgan. "Kasbiy ta'lim va tarbiya psixologiyasi" asarining muallifi, rus psixologi T.V.Kudryavsev shaxsning kasbga bo'lgan munosabati va mehnat faoliyatini bajarish darajasi mezoniga ko'ra, kasbiy shakllanishning bosqichlarini ajratib chiqqan:

- a) kasbiy moyillikning paydo bo'lish bosqichi;
- b) kasbiy ta'lim olish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichi;
- c) kasbiy faoliyatni boshlash va mehnat jamoasida o'rnini topishga intilish bosqichi;
- d) kasbiy mehnatda o'zini to'liq namoyon etish bosqichi.

Yana bir rus psixologi E.A.Klimov o'zining "Kasb qanday tanlanadi?" asarida u insonni mehnat subyekti sifatida talqin etib, kasbiy yo'nalganlikni davrlashtirish asoslariga to'xtalib o'tgan:

1. O'yin faoliyatidan oldingi bosqich bo'lib, bolaning 4 yoshgacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola keyingi rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo'lgan idrok qilish vazifalarini o'zlashtiradi;

2. O'yin faoliyati bosqichi (5-8 yosh) – inson hayotining “asosiy mazmuni”ni o'zlashtiradi;

3. O'quv faoliyatini o'zlashtirish bosqichi (8-12 yosh) – bu bosqichda bola faoliyatni rejalashtirishni, o'zini-o'zi nazorat qilish va taxlil qilishni o'rganadi;

4. Optatsiya (optatsiya – lotincha, istak, tanlov) bosqichi (12-17 yosh) – kasb-hunar ta'limi muassasalarida kasb tanlash davri;

5. Adept (biror soha bilimlari tarafdori bo'lish) bosqichi (17-20 yosh) – o'zi tanlagan kasbning ixtisoslig bo'yicha kasbiy va nazariy tayyorgarlik ko'rish;

6. Adaptant bosqichi (adaptatsiya davri) (20-23 yosh) – tanlagan kasbida ish boshlash va unga ko'nikish;

7. Internal bosqich (23-26 yosh) – kasbiy tajriba va bilimlarni to'plash;

8. Mahorat bosqichi – o'z mehnat faoliyatini malakali darajada bajarish

9. Obro'-e'tibor bosqichi – kasbi bo'yicha yuqori malakani o'zlashtirishi natijasida atrofdagilar tomonidan e'tirof etilish;

10. Ustozlik darajasi bosqichi – malakali mutaxassis tomonidan o'z kasbiy tajribalarini va kasbning sir-asrorlarini shogirdlarga o'rgatish hamda o'zining kasb maktabini yaratish.

Shaxsda kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida kasbiy o'zlikni anglashni ham bir nechta davrlarni bo'lish mumkin:

1. Bolada kasblar dunyosi haqida dastlabki ko'rgazmali tasavvurlarning vujudga kelish davri. Ushbu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan yosh davrni o'z ichiga oladi. Rivojlanish mobaynida bolaning ongida kasblar dunyosi haqidagi turli-tuman tasavvurlar vujudga kela boshlaydi. Maktab boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv faoliyatida o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlar olami yanada kengayib boradi.

2. Bolada o'zini kasbiy bilish davri. Turli kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi talab etiladi. Lekin ba'zi o'quvchilar o'zining sevimli kasbi haqida yetarli bilim, tayyorgarlik va ko'nikmaga ega bo'lmaganlari sababli o'zlarini kasbiy sohada namoyon eta olmaslik muammolariga duch kelishi mumkin. Shuningdek, bu davrda ular yangi yetakchi faoliyat - tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchayib boradi.

3. O'z o'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqich bilan birgalikda kasbiy o'zlikni anglash jarayoni ham yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. Bu davrning eng muhim jihatlari: o'quvchida kasbni tanlash, uning aniq yo'nalishlari, barqaror qiziqishlar va ehtiyojlar, kasbning talablariga mos bo'lgan shaxsiy xususiyatlarining o'quvchida shakllanish hodisalari kuzatiladi.

Mazkur nazariy ma'lumotlarni o'qib, o'rganib, ularni tahlil qilish jarayoni bizni ham tadqiqotlar o'tkazishga, natijalarni xulosalab, tavsiyalar ishlab chiqishga bo'lgan qiziqishimizni oshirdi. Xususan, Farg'ona tumanidagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabini 2022-2023-o'quv yilida tamomlayotgan 11-sinf o'quvchilarida kelajakda qanday kasb egasi bo'lish istagida ekanliklarini aniqlashga kirishdik. Ularning kasb tanlash motivlarini aniqlash maqsadida anketa-savolnoma o'tkazdik. Savolnoma “Kelajakdagi kasbingiz?” va “Ushbu

kasbni tanlashingizga nimalar turtki bo'ldi?" savollaridan iborat bo'lib, unda 22 nafar respondent ishtirok etdi. Javoblarni tahlil qilar ekanmiz, respondentlarning 63 % o'z qiziqishlari bo'yicha kasb tanlayotganliklarini bildirishdi va ushbu kasbni egallash uchun zarur bo'lgan bilimlarni qo'shimcha ravishda o'zlashtirayotganligini ta'kidlab o'tishdi. Ular bir necha yildan buyon qo'shimcha darslarda qatnashishi ularning o'z maqsadlari yo'lida qat'iy va dadil qadam qo'yayotganliklarini anglatadi. Sabablarning keyingi galdagisi kasbning jamiyatdagi obro'-e'tibori egalladi. Kasb tanlashga turtki bo'lgan yuqoridagi omilni 14 % respondent belgiladi. Bu kasbning jamiyatda tutgan o'rnini uni tanlash sabablaridan biri bo'lishini ko'rsatib beradi. Ishtirokchilarning yana 14 % kasb tanlash sababi sifatida moddiy manfaatlar ko'zlanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu yoshlarda yaxshi turmush tarziga va boylikka intilishni bildiradi. Qolgan 9 % ishtirokchilar kasb tanlashiga ota-onasi yoki qarindoshlarining maslahatlari turtki bo'lganini aytib o'tishdi. Albatta, har bir shaxsning kelajakdagi kasbini tanlashiga oila a'zolar ham o'z ta'sirini ko'rsatishadi. Bunda muhim jihatlaridan biri shuki, avvalo, bolaning qiziqishi va qobiliyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy muhit va hodisalar hamda yetakchi faoliyat turi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb tanlash bola tug'ilganidan to kasbda o'z faoliyatini boshlagunga qadar davom etadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun mehnat ta'limi va tarbiyasi oila bilan maktab hamkorligida amalga oshiriladigan kasb tanlashga psixologik tayyorlash hamda mehnat faoliyatiga ruhan tayyorgarlikka ko'maklashadigan yo'nalish sifatida uzviy davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarov F. Xalilova N. Kasb psixologiyasi T. 2010.
2. Климов Э. А. Как выбрать профессию. М.: Провещение, 1990.
3. Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания. М.,1997.
4. MuazzamTulkinovna Isakova //Socio-Psychological Factors Are The Effect Ofperson's Mental Health// European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 07, Issue 03, 2020. 4699-4718 pages.
2. Muazzam Isakova Tulqinovna //FAMILY AS A FACTOR IN MENTAL HEALTH// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 7, July 2020. 200-210 pages.
3. Isakova Muazzam To'lqinovna //Additional Learning is as a Factor of Mental Health// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24, Issue 05, 2020. 7330-7335 pages.
4. Isakova M.T. //GENDERNIYE RAZLICHIIYa VEDUЩИХ PSIXOLOGICHESKIX FAKTOROV MEJDU OTNOSHENIYEM K ZDOROVYu I INDIVIDUALNO-DINAMICHESKIMI XARAKTERISTIKAMI// VESTNIK INTEGRATIVNOY PSIXOLOGII. 2021, Выпуск 23. 144-149 str.

5. M.T.Isakova //SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A PERSON'S ATTITUDE TO HIS MENTAL HEALTH// Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue 4, April, 2021. 29-36 pages.

6. Isakova M.T //Inson ruxiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari// Monografiya. Toshkent 2021.

7. Isakova Muazzam To'liqinova //DINIY E'TIQOD SHAXS RUXIY SALOMATLIGINING OMILI SIFATIDA// "PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL. Maxsus son, № 2, 2020. 68-72 betlar.

8. M.T.Isakova //DAVLAT BOSHQARUVI VA SHAXS RUHIY SALOMATLIGI// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2020-yil, 4-son. 158-162 betlar.

9. Isakova Muazzam Tulkinova //HUMAN HEALTH AND PSYCHE// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. OCTOBER, 2020-V. ISSN 2181-9750. 40-46 pages.

10. M.T.Isakova //OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2021-yil, 2-son. 127-134 betlar.

11. Isakova Muazam Tulkinova //THE RESULTS OF THE EMPIRICAL TRANSFER OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE MENTAL HEALTH OF THE INDIVIDUAL// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. JUNE, 2021-XI. ISSN 2181-9750. 4-15 pages.

12. Isakova Muazzam Tulkinova //INSONNING SALOMATLIKKA MUNOSABATI BILAN UNING INDIVIDUAL-DINAMIK XUSUSIYATLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI MUAMMOLARI// ZAMONAVIY TA'LIM. 2021,7 (104). 42-48 betlar.

13. Isakova Muazzam Tulkinova //DEPENDENCE OF A PERSON'S ATTITUDE TO HEALTH ON AGE CHARACTERISTICS// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. JULY, 2021-7/2. ISSN 2181-9750. 34-40 pages.

14. Isakova Mu'azam Tulkinova //INSONNING SALOMATLIKKA MUNOSABATINING INDIVIDUAL DINAMIK XUSUSIYATLARI MUAMMOSI VA UNI EMPIRIK O'RGANISH// ZAMONAVIY TA'LIM. 2021,8 (105). 45-52 betlar.

15. M.T.Isakova //EMPIRICHESKOYE ISSLEDOVANIYE VZAIMOSVYAZI OTNOSHENIYA LICHNOSTI K ZDOROVYU S INDIVIDUALNO-DINAMICHESKIMI XARAKTERISTIKAMI// Psixologiya upravleniya personalom i ekosistema nastavnichestva v usloviyax izmeneniya texnologicheskogo uklada. Vtoraya mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya. 11-12 noyabrya 2021 g., Nijniy Novgorod. 598-606 str.

16. Isakova M.T //SHAXS RUXIY SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR// AHOLINING PSIXOLOGIK SALOMATLIGI - JAMIYAT FAROVONLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMANI. Farg'ona. 20.05.2020. 5-9 betlar.

17. Isakova M.T. //BANDLIK SHAXS RUXIY SALOMATLIGINING OMILI SIFATIDA// Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovasion jihatlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. 27 may 2020 yil. Moskva. 714-717.

18. Isakova M.T. //IJTIMOIY NAZORATNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI BORASIDA AYRIM FIKRLAR// АКТУАЛНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА. Konferensiya, Tashkent-2018. 79-81 betlar.
19. Isakova, M., & Xaydaraliyev, A. (2023). YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVLARINING O'RGANILISHI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6 Part 2), 16-20.
20. Abdullayeva, A.R. (2023). Psychological factors of forming a healthy lifestyle in the family. Open Access Repository, 4(03), 43-50.
21. Abdullayeva, A.R. (2023). THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 670-674.
22. Абдулаева, А.Р. (2022). ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ. Uzbek Scholar Journal, 6, 26-29.
23. Абдуллаева, А., & Тошболтаева, Н. (2023). ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(18), 21-26.
24. Абдуллаева, А. (2023). ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. ЙОДКОР О'ҚИТУВЧИ, 3(30), 467-473.
25. Abdullaeva, A., & Rakhmonov, S. (2023). MANAGEMENT PSYCHOLOGY AND ITS RESEARCH METHODS. Open Access Repository, 4(3), 1449-1454.
26. Abdullaeva, A. (2021). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY ON THE CHILD'S PSYCHE. Теория и практика современной науки, (5 (71)), 3-6.
27. Абдуллаева, А.Р. (2023). ОИЛА ФУНКЦИЯЛАРИНИ ОТА-ОНА ВА ФАРЗАНД МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИНИ ИЖТИМОИЙ- ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 160-164.
28. Абдуллаева, А.Р., & Абдукаримова, М.Р. (2022). ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҲ МОТИВЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 1132-1138.
29. Zaynobiddinov, S.Z., Mamatokhunov, Y.A., & Rakhmatulina, R. (2019). METHODOLOGY OF THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL ACTIVITIES OF PUPILS IN THE PROCESS OF FORMATION OF THEIR INDEPENDENCE AT PHYSICS LESSONS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(1).
30. Ж.Зайнобидинов //IDENTIFICATION AND IMITATION ARE THE QUALITY OF MOTIVATION FOR CAREER CHOICE OF TEENAGERS// American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 17, June, 2023. 99-101.

31. Zaynobbiddinov Jamoldin. (2023). THE ORIGIN OF STUDENTS WHO DO NOT LEARN AT SCHOOL DEPENDS ON SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS. Uzbek Scholar Journal, 13, 54-59.

32. Zaynobbiddinov Jaloldin. (2022). STUDY OF NON-ASSIMILATING STUDENTS IN PSYCHOLOGICAL SOURCES IN FOREIGN LITERATURE Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1680-1685.

33. ЗАЙНОБИДДИНОВ ЖАЛОЛИДДИН //ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ// ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ. Екатеринбург, 19 марта, 2021 года. 305-311 стр.

34. Зайнобиддинов, Ж. (2021). ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. In ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ (pp. 305-311).

35. Ж.Зайнобиддинов //ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ОЛАЁТГАН БОЛАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИНИ ПСИХОЛОГИК ЎРГАНИШ// INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference. 27 th June, 2023. Chelyabinsk, Russia: "CESS", 2023. Part 20. 1013-120.

36. Topvoldiyevna, M.E., & Adxam o'g'li, X. A. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 217-225.

37. Zakirova Muxabbat Sabirovna (2023). МАКТАБГАЧА YOSHGADI BOLADA O,,ZI HAQIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(7), 104-113.

38. Topvoldievna Mirzajonova Eleonora, Abdukadirova, Yulbarsova Laura //Actuality of psychological support in work with children from the risk group// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Volume 12. Issue 6. 2022. 51-56 pages.

39. Topvoldiyevna, M.E., & Adxam o'g'li, X.A. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 217-225.

40. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinoxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.

41. Mirzajonova, E.T. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 660-669.

42. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova //The role of psycho-oncology in the treatment of cancer patients// Texas Journal of Medical Science. 18-06-2022. 14-17 pages.

43. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Dostonbek Muxtarjon o'g'li Masharipov //INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O'RGANISH// INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference 25 th March, 2023. Washington, USA: "CESS", 2023. Part 28. 192-199 pages.

44. Э.Мирзажонова, А.Хомидов, Г.Мамажонова //АКТУАЛЬНОСТЬ ПЕРЕВОДА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК// О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI. 9-SON. 20.06.2022. 211-217 betllar.

45. Мирзажонова, Э., & Хомидов, А. (2022). КОМПЛЕКСНОСТЬ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДОШКОЛЬНИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 209-219.

46. Mirzajonova, E., & Masharipov, D. (2023). SURUNKALI O'SIB BORUVCHI RUXIY KASALLIKLAR. Евразийский журнал академических исследований, 3(5), 90-94.

47. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 3), 48-58.

48. Пулатова, Гулноза //Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism// Общество и инновации 2.6/S (2021): 200-204.

49. Pulatova, G.M. //WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.

50. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.